

THE ROLE OF READING AND UNDERSTANDING THE TEXT IN THE DEVELOPMENT OF SPEECH COMPETENCE OF STUDENTS

Lobar Mambetova,

Tashkent State Pedagogical University named after Nizami

3 Foundation doctoral student

Annotation

This article highlighted the importance of developing students' reading literacy in mother tongue education and the role of reading comprehension in developing students' speaking competence.

Key words: communicative competence, speech activity, reading literacy, reading comprehension, pre-text assignments, text title.

Jahon tajribasidan ma'lumki, bugungi kunda matnni o'qib tushunish, ushbu malaka orqali o'quvchilarning ma'lumotlar ustida mulohaza yuritish, ularga munosabat bildirish va foydalanish kabi ko'nikmalarini shakllantirish til ta'limi oldiga qo'yilgan eng muhim masalalardan biriga aylangan. O'qish o'quvchida ta'limning dastlabki bosqichlarida, bolalikda o'zlashtiriladigan qobiliyat emas, balki shaxsning butun umri davomida turli kontekstlarda o'z tengdoshlari va keng jamoatchilik bilan muloqot qilish asosida rivojlantirilib boradigan bilim, ko'nikma va malakalar yig'indisidir. Tilshunos M.Gulyamova "Nutq faoliyatining bu turi orqali axborot-ma'lumot olish, dunyoqarashni kengaytirish hamda so'z boyligini ko'paytirib borishga erishiladi, ya'ni o'quvchilar kerakli axborotni oladilar, o'z bilmlarini oshiradilar, mustaqil va tanqidiy fikrlaydilar, bu jarayon **retseptiv qobiliyatdir**"[1], - deydi. O'qish bosqichma-bosqich yuzaga keladigan belgilarni dekodlashning kognitiv harakatidir. O'qish nutq faoliyatining turi sifatida yozma axborotni idrok qilish, tushunish, mulohaza yuritish va munosabat bildirishga

qaratilgan murakkab jarayondir. Ushbu ko‘nikmaning yaxshi shakllanganligi har qanday davlatning ijtimoiy va iqtisodiy jihatdan yuksalishi, ya’ni inson kapitali indeksining o‘sib borishida juda ahamiyatli masalalardan biri hisoblanadi. Bu borada O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 29-apreldagi PF-5712-sonli farmoniga muvofiq[2], umumiy o‘rta va maktabdan tashqari ta’limni tizimli isloh qilishning ustuvor yo‘nalishlarini belgilash, o‘sib kelayotgan yosh avlodni ma’naviy-axloqiy va intellektual rivojlanishini sifat jihatidan yangi darajaga ko‘tarish, o‘quv tarbiya jarayoniga ta’limning innovatsion shakllari va usullarini joriy etish maqsadida, O‘zbekiston Respublikasining 2030-yilga kelib PISA (The Programme for International Student Assessment) - o‘quvchilarning o‘qish savodxonligini baholash bo‘yicha xalqaro darstur reytingida jahonning birinchi 30 ta ilg‘or mamlakatlari qatoriga kirishga erishish hamda xalq ta’limi tizimida ta’lim sifatini baholash sohasidagi xalqaro tadqiqotlarni tashkil etish asosida o‘quvchilarning o‘qish savodxonligi darajasini baholashga yo‘naltirilgan ta’lim sifatini baholashning milliy tizimini yaratish vazifalari belgilangan.

O‘qish savodxonligi nafaqat ona tili, balki boshqa fanlarni o‘zlashtirishda, turli fan sohasida yutuqlarga erishish uchun asosdir. “Xalqaro tadqiqotlarda o‘quvchilarning o‘qish savodxonligini baholash” nomli metodik qo‘llanmada “O‘qish savodxonligi – shaxs o‘zining bilim va salohiyatini rivojlantirish, jamiyatda o‘z o‘rnini topish maqsadiga erishishi yo‘lida matnlarni tushunish, ulardan foydalanish, ular ustida mulohaza yuritish hamda ularga munosabat bildirish qobiliyati demakdir”[3], - deb ta’rif berilgan. “O‘zbek tilining izohli lug‘ati”da “savodxonlik” so‘ziga “1.Oddiy matnlarni o‘qiy olish yoki ularni o‘qish va yoza olish ko‘nikmasiga egalik. 2.Odamning adabiy til me’yorlariga muvofiq keladigan og‘zaki va yozma nutq malakalariga egaligi. 3.Muayyan soha bo‘yicha yetarli bilimga egalik”[4], - degan ta’riflar berilgan. Demak, savodxonlik atamasi shaxsning ma’lum bir sohaga oid bilimini anglatadi, o‘quvchining o‘qish

savodxonligi esa kitob o‘qish qobiliyati, kitobdan yoki ijtimoiy tarmoqlardan uning ma’lumotni tanlashi, tushunishi, talqin qilishi va baholashi kabi mezonlar bilan belgilanadigan kognitiv faoliyati bo‘lib, u o‘quvchining lingvistik kompetensiyalarini ham qamrab oladi. Xususan, o‘quvchining alohida olingan so‘zning ma’nosini tushunishdan tortib matnning grammatik va lingvistik qurilishini anglash hamda matndan olingan ma’noni o‘zining olam haqidagi bilim hamda tasavvurlari bilan bog‘lashni, matn bilan ishslashda kerak bo‘ladigan turli strategiyalarni bilish va ularni to‘g‘ri qo‘llay olish kabi bir qancha jarayonlarni o‘z ichiga oladi.

O‘qitishning maktab bosqichida o‘quvchilarda o‘qish jarayonini savodxon darajada shakllantirish uchun til ta’limida ushbu maqsadga qaratilgan yangicha yondashuvlarni, metodik tadbirlarni olib borish juda muhim sanaladi. O‘qish qobiliyatini savodxon darajada shakllantirish uchun alohida metodik tadbirlarni tashkil etishning muhimligi haqida gapirar ekanmiz, rus psixolog T.G.Yegorov ham eng avvalo, “Matnni tushunish uchun, albatta, o‘qish texnikasini yaxshi o‘zlashtirish muhim. Ammo o‘qishdek murakkab hisoblangan jarayon o‘qish texnikasi va o‘qib tushunish malakalarini shakllantirish jarayonlari bilan o‘zaro uyg‘un holda olib borilsagina o‘z natijasini beradi”[5, - deya ta’kidlagan. O‘qish savodxonligini shakllantirishda matnlarning o‘rni beqiyosdir. O‘quvchilarda nutqiy kompetensiya elementlari turli uslublardagi yaxlit matnlar asosida mashq va topshiriqlar ishslash orqali rivojlantirilsa samarali natijalar beradi. Matn tahlilida o‘qib tushunish deb matnda muallif tomonidan ochiq aytilgan ma’lumotni va matndagi so‘zlarning ortiga yuklangan, ya’ni matn komponentlarining tag zamirida nazarda tutilgan mazmunni anglash jarayoniga aytiladi. Ona tili darslarida matn bilan ishslash, uni tushunish, tahlil qilishni o‘rgatishda matnning tushunarligi, matn bilan bog‘liq topshiriqlarning metodik sifati bilan birga, matnning o‘quvchi uchun qiziqarliligi ham muhim rol o‘ynaydi. Matnni tushunishga uning qiyinlik darajasi, tili, tuzilishi

katta ta'sir qiladi. Matnni o‘qib tushunishda matndan oldingi topshiriqlar katta rol o‘ynaydi. E.G.Azimov va A.N.SHukinlar: “Matn oldi mashqlarining vazifasi o‘qishning psixologik mexanizmlarini maqsadli shakllantirish, yangi so‘zlar va grammatik hodisalarining ma'nolarini tushuntirishdir”[6], -deydi. Shunga e’tibor berish kerakki, bunday topshiriqlar matn mazmunini to‘liq ochib bermasligi kerak, aks holda matn o‘quvchilar uchun o‘z yangiligini yo‘qotadi, bu ularning o‘qishga bo‘lgan qiziqishini kamaytirishi mumkin. Matndan oldingi mashqlar mazmuni quyidagicha bo‘lishi mumkin:

- matn sarlavhasi asosida matnda kim yoki nima muhokama qilinishini so‘rash,
- matndagi qahramonlar bilan tanishtirish,
- matnni tushunishga yordam beradigan tushunchalarni o‘rgatish kabi.

Bunday topshiriqlar o‘quvchining matnni tushunishini osonlashtiradi, oldindan ko‘ra olish, ya’ni bashorat qilish qobiliyatlarini rivojlantiradi, o‘quvchilarni matnni o‘qishga qiziqtirib, unga o‘qish uchun motivatsiya beradi.

Xulosa shuki, ona tili darslarida o‘quvchilarda nutqiy kompetensiya takibiy qismi bo‘lgan o‘qib tushunish ko‘nikmasini rivojlantirishda matn ustida ishlash muhim omillardan bo‘lib, xususan, matndan oldingi topshiriqlar o‘quvchilarda matnni tushunishni osonlashtiradi.

Foydalilanigan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Gulyamova M.X. Ingliz tilini o‘qitishda talabalar kommunikativ kompetensiyasini rivojlantirishga integrative yondashuv. Ped. fanlari nomzodi ... dis. – T., 2019. 75-bet

2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “O‘zbekiston Respublikasi Xalq ta’limi tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida” gi 2019-yil 29-apreldagi PF-5712-sonli Farmoni
3. O‘zbek tilining izohli lug‘ati. "O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi" Davlat ilmiy nashriyoti, Toshkent 2006-2008.
4. Ismailov A., Norboyeva D., Ahmedova H. va b. “Xalqaro tadqiqotlarda o‘quvchilarning o‘qish savodxonligini baholash”, “Sharq” nashriyoti, Toshkent – 2019, 12-bet
5. Ismailov A., Norboyeva D., Ahmedova H. va b. “Xalqaro tadqiqotlarda o‘quvchilarning o‘qish savodxonligini baholash”, “Sharq” nashriyoti, Toshkent – 2019, 12-bet
6. Егоров Т.Г. Психология овладения навыком чтения. Академия педагогических наук РСФСР, 1953, с 165
7. Новый словарь методических терминов и понятий (теория и практика обучения языкам) / сост. Э.Г. Азимов, А.Н. Щукин. – М.: Издательство ИКАР, 2009